

# **Umumjahon pul haftaligi” (Global Money Week 2024) doirasida tashkil etiladigan yoshlar uchun videoroliklar tanlovini o‘tkazish QOIDALARI**

## **1. Umumiy qoidalar**

1.1. Ushbu hujjat “Umumjahon pul haftaligi” (Global Money Week 2024) doirasida yoshlar o‘rtasida **“Pulingizni himoya qiling, kelajagingizni ta’minlang”** mavzusidagi videoroliklar tanlovi (bundan buyon matnda Yoshlar uchun tanlov deb yuritiladi) tashkil etish va o‘tkazishni tartibga soladi.

1.2. Tanlov Markaziy bank tomonidan o‘tkazilib, ishtirokchilar yaratgan informatsion videoroliklar orqali raqamli moliyaviy savodxonlikni oshirish, moliyaviy qarorlarni qabul qilishda moliyaviy barqarorlik, shaxsning moliyaviy kelajagi uchun individual moliyaviy xatti-harakatlarning oqibatlari haqida xabardorlikni oshirish ko‘zda tutilgan.

1.3. Ushbu tanlovda yoshlarning erta yoshdan boshlab moliyaviy bilimlardan xabardor bo‘lib, to‘g‘ri moliyaviy qarorlar qabul qila olishlarining asosiy afzalliklari hamda mohiyatini ochib bergan eng yaxshi videorolik aniqlanadi.

1.4. Tanlov ishlari **2024-yil 4-martdan 1-aprel kuni soat 12:00 gacha qabul qilinadi**. 2024-yil 1-apreldan keyin kelib tushgan ariza va ishlar tanlovda ishtirok etishiga ruxsat berilmaydi. Tanlovda ishtirok etish tanlov shartlari bilan tanishib chiqqanlik va ularga to‘liq rioya etilishiga rozilikni anglatadi.

## **2. Tanlov maqsadi**

Ushbu tanlov maqsadi yoshlarning shaxsiy ko‘nikmalarini shakllantirish, moliyaviy xavfsizlik qoidalarga amal qilmaslik va uning oqibati to‘g‘risida xabardorlikni oshirishdan iborat.

## **3. Tanlov ishtirokchilari**

Tanlov 17-21 yoshdagilar orasida o‘tkaziladi.

Individual ishlar bilan bir qatorda kollektiv ishlar ham qabul qilinadi (bunda mas’ul shaxsni ko‘rsatish lozim bo‘ladi).

## **4. Tanlovning asosiy shartlari**

Tanlovda qisqa videoroliklar yaratiladi.

Muallif videorolikda **“Pulingizni himoya qiling, kelajagingizni ta’minlang”** mavzusi bo‘yicha o‘z tasavvurini yoritib berishi lozim.

## **5. Tanlovning texnik shartlari**

Tanlov mavzusidan chiqmagan holda videorolikni istalgan texnik apparat yordamida suratga olish mumkin.

Videorolikka qo‘yiladigan talablar:

- formati: MP4 h264;

- o‘lchamlari – 1080p, 720p (eni bo‘yicha minimal o‘lcham 1280 piksel, balandligi bo‘yicha minimal o‘lcham 720 piksel);

- davomiyligi – 2 daqiqagacha;
- videorolik syujeti ishtirokchilar tomonidan mustaqil belgilanadi (hikoya, reportaj, musiqiy klip, multfilm va h.k.).

Taqdim etiladigan ijodiy ishlarda uchinchi shaxslar huquqlarini buzuvchi, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga zid keluvchi hamda reklama elementlarini o‘zida mujassam etuvchi ma’lumotlar bo‘lmasligi lozim.

## **6. Tanlov ishlarini baholash mezonlari**

Tanlov bo‘yicha hay‘at a‘zolari videoroliklarni quyidagi mezonlar asosida baholashadi:

- ijodiy ishning e‘lon qilingan mavzuga mos kelishi;
- videorolikning kreativligi;
- ma’lumotlarning to‘liqligi;
- estetik qoidalarga javob berishi.

Tanlovning g‘olib va sovrindorlari quyidagi esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadilar:

- 1-o‘rin –noutbuk;
- 2-o‘rin –smartfon;
- 3-o‘rin – smartsoat.

## **7. Tanlov tashkiliy qo‘mitasi va hakamlar hay‘ati**

### **7.1. Tanlov tashkiliy qo‘mitasi**

Tanlov tashkiliy qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki xodimlaridan tashkil topiladi va quyidagilarni amalga oshiradi:

- ishtirokchilardan arizalar va tanlov ishlarini yig‘ish;
- tanlovga taqdim etilgan ishlar, materiallar va hujjatlarni tekshirish, shu jumladan ishlarni kontrafaktga tekshirish ishlarini tashkil etish;
- tanlovni o‘tkazish tartibi va shartlariga rioya etilishi ustidan nazoratni ta‘minlash;
- Jamoatchilik bilan aloqalar va kommunikatsion siyosat departamenti bilan birgalikda Markaziy bank veb-sayti va ijtimoiy kanallarida tanlov bo‘yicha e‘lonlarni berib borish;
- mazkur hujjatning 4,5-bandlarida ko‘rsatilgan tanlov shartlariga mos kelmagan ishlarni muallifni ogohlantirmasdan tanlovda ishtirok etishdan chetlatish bo‘yicha takliflarni tanlov hay‘atiga kiritadi.

Tanlovning tashkiliy qo‘mitasi tanlov ishlarini jamoatchilik e‘tiboriga taqdim etish va tanlov jarayonini ommaviy axborot vositalarida yoritish maqsadida muallifni xabardor qilmasdan va ularga haq to‘lamasdan har qanday tanlov ishlarini to‘liq yoki qisman nashr etish huquqiga ega.

## **7.2. Tanlov hakamlar hay'ati**

Tanlov ishlarini baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki vakillaridan tanlov hay'ati tuziladi.

Tanlov hakamlar hay'atining har bir vakili tanlov mezonlariga javob bermaydigan tanlov ishlarini asoslantirgan holda baholamaslik huquqiga ega.

Tanlov hakamlar hay'ati a'zolarining kamida 2/3 qismi (kvorum) Tanlov ishlarini baholagan taqdirda yakuniy natijalar inobatga olinadi.

## **8. G'oliblarni saralash tartibi**

8.1. Tanlov bo'yicha hakamlar hay'ati a'zolari tanlov doirasida arizalarni qabul qilish yakunlanganidan so'ng har bir ishtirokchining ijodiy ishini tegishli mezonga asosan o'rnatilgan tartibda baholaydi. Baholash natijalariga ko'ra tanlov tashkiliy qo'mitasi ballarni umumlashtirib chiqadi. Eng ko'p ball to'plagan ishtirokchilar orasidan g'olib va sovrindorlar aniqlanadi.

8.2. Mazkur hujjatning 4,5-bandlarida ko'rsatilgan shartlarga javob bermaydigan ijodiy ishlar hakamlar hay'ati tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

8.3. Tanlov bo'yicha ijodiy ishlarga taqriz berilmaydi va ishlar qaytarilmaydi. Tanlov jarayonlari va natijalari bo'yicha shikoyatlar/ appelyatsiyalar qabul qilinmaydi.

8.4. Agar g'oliblar aniqlanmasa, tanlov hay'ati tanlovni bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega.

8.5. Tanlov g'oliblari Markaziy bankning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy sahifalarida e'lon qilinadi.

8.6. Agar tanlov g'olibi sovrinni olishdan bosh tortgan bo'lsa yoki tanlov natijalari e'lon qilingan kundan boshlab 10 bank ish kuni ichida uni olish niyatini bildirmagan bo'lsa, g'olibning sovrinni olish huquqi yo'qolgan deb hisoblanadi. Sovrinni olishdan bosh tortgan yoki belgilangan muddatda sovrinni olish/undan foydalanish niyatini bildirmagan g'olib ushbu muddatdan keyin sovrinni tashkilotchidan talab qilishga haqli emas. Sovrin tanlov ro'yxatida keyingi o'rinni olgan g'olibga beriladi.

## **9. Mualliflik huquqlari**

9.1. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunga rioya etilishiga tanlovda ishtirok etish uchun o'z ishini topshirgan ishtirokchi shaxsan javobgardir.

9.2. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunga asosan Tanlov doirasida ishtirokchilarning ijodiy ishlaridan uning roziligisiz Markaziy bank foydalanishi (kontraktga tekshirishi, keng jamoatchilik e'tiboriga taqdim etishi va bosma OAVda chop etishi) mumkin.

9.3. Tanlovda muallif tomonidan boshqa shaxslarning yaratgan ishlari bilan yoki ulardan foydalangan holda ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi va uning o'z g'oyasi bilan yaratilgan ishlar qabul qilinadi.

9.4. Tanlov natijasiga ko'ra rasman tanlovning ishlaridan foydalanishda Markaziy bank mutlaq huquqqa ega.

9.5. Muallif asarlarni tanlovga yuborish orqali avtomatik ravishda tanlov tashkilotchilariga taqdim etilgan materiallardan notijorat maqsadlarda foydalanish huquqini beradi (internet tarmog'ida, televideniya joylashtirish va h.k.).

#### **10. Arizalarni taqdim etish**

Tanlovning ishtirokchilari arizalar va videoroliklarni konkurs.cbu@gmail.com elektron pochta manziliga yuborishlari (xat mavzusida "Global Money Week 2024" yoshlar uchun tanlov deb ko'rsatgan holda), elektron pochta manzili, 100001, Toshkent sh., Islom Karimov ko'chasi, 6 pochta manziliga, hududiy Bosh boshqarmalari (<https://cbu.uz/oz/about/central-office/regional/>) orqali yuborishi yoki shaxsan elektron xotirada Markaziy bankka yetkazishi mumkin.